ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

O'ZBEK TILI JARQO'RG'ON SHEVASI LEKSIKASIDA JOY NOMLARINING TADQIQI

Mansur Abdumannobovich Xamidov
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi (PhD)
mansurimomali17@gmail.com
+998996709196

Annotatsiya: *Maqolada Jarqo'rg'on tumanining joy nomlari ta'biri, ularning dialektal tadqiqi, toponimlarning fanlararo integratsiyasi, o'zbek tili so'z boyligini oshirishda jug'rofiy nomlarning atamashunoslikdagi ahamiyati kabi bir qator vazifalar yoritildi. Jarqo'rg'on shevasi leksikasida joy nomlarining salmog'i masalasiga to'xtalib o'tildi. Nomlarning o'zgarish tendensiyalari, ilmiy manbalar bilan xalq jonli tilidagi farqlar ko'rsatib berildi.*

Kalit so'zlar: *Dialektal toponimlar, Areallingvistika, jo'g'rofiy atamalar, Jarqo'rg'on, qo'ng'irot urug'i nomlari, daha, shaxs va joy nomlari.*

Har bir til rivojlanishida uning boshqa fanlar bilan o'zaro integratsiyasi muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Hech bir soha yo'qki, taraqqiyotga hamkorliksiz, aloqa almashinuvisiz yetisha olmaydi. Bu o'z navbatida tilshunoslik sohalari ham boshqa fanlar bilan aloqa almashinuvi orqali yangi ilmiy ufqlarni ochib boradi.

Dialektologiyada biror hudud shevasi o'rganilayotganda xalq yashayotgan manzil-makonining nomi ham tadqiq etilishi zarurdir. Bugungi kunda Dialektologiyani professorlar Tolib Enazarov, Samixon Ashirmatov kabi tilshunos olimlarimiz tomonidan jahon tilshunosligida "Areal lingvistika" deb nom berilayotgani va yangicha tadqiq etilayotganida ham fanlararo bog'liqlikni ko'rishimiz mumkinligini e'tirof etishadi. Bu borada toponimlarning tadqiqi ham muhim o'rin tutadi.

Geografik atlaslarda qayd etilgan jug'rofiy nomlarga e'tibor bersak, ko'pchiligi yangicha milliy nomlar bilan o'zgarganiga guvoh bo'lamiz. Ayrimlarigina bilvosita saqlanib qolganlari ham mavjud, lekin ularning ham vaqtlar o'tishi bilan yangi nomlar berilishi sababli yo'q bo'lib ketishi sir emas, albatta. Har bir yangi atab qo'yilgan joy nomini o'sha so'zning geografik+tarixiy+etimologik+lingvistik bog'liqligi orqali tadqiq etilishi yaxshi samara beradi.

Joy nomlari tadqiqi bilan bog'liq juda ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan. Bir qator kitoblar, monografiyalar, lug'atlar yaratilgan. Jumladan, bir umr o'z umrini nomshunoslikka baxsh etgan E.Begmatovning "Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi", "H.Hasanovning "O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi va toponimiyasi", S.Qorayevning "O'zbekistonning hozirgi va qadimgi joy nomlari", "O'zbekiston viloyatlari toponimlari" Y.Xo'jamberdiyevning "Surxondaryo", T.Nafasovning "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati", Sh.Safarov va I.Umarovning "Ayrim toponimlar" kabi asarlar O'zbekiston toponimiyasini o'rganishda muhim manbalardan bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda qayd etish joizki, o'rganailayotgan sheva obyekti bo'lgan Jarqo'rg'on tumanining joy nomlari biror bir kitob yoki lug'atda to'liq hajmda tadqiq etilmagan. Ayniqsa, dialektal sohada bu muhim va dolzarb vazifadir. Chunki joy nomlarining ko'pchiligi o'zgarishga uchragan. Ilgari qanday atalganini esa keksa avlod yaxshi biladi. Ular "jonli ensiklopediyalar"dir. O'z vaqtida yozib olib o'rganilmasa, keyin kech bo'lishi turgan gap.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY


VOLUME-5, ISSUE-12

2020-yilda nashrdan chiqqan “O’zbek tilining izohli lug’ati”da hattoki, tadqiq etayotgan Jarqo’rg’on so’zining o’zi yo’q. Bu joy nomini O’zbekiston milliy ensiklopediyasidan topish mumkin. Unda ham umumiy ma’lumotlar mavjud. Tilshunoslik jihatdan esa “Jar yoqasida joylashgan qo’rg’on” nomidan kelib chaqqanligini uchratishimiz mumkin.

A.To’xtayev va S.Tursunovlarning hammualliflikda yozilgan “Jarqo’rg’on” monografiyasida Jarqo’rg’on so’zi tarixda Sarminjon (Jarminjon), Sarmangan, Charmangan, Narmangan nomlari bilan atalganligi, “sar” – bosh, “mayn” – qal’a, “jan” – daryo, irmoq so’zlaridan tarkib topgan bo’lib, “Bosh qal’adagi daryo” yoki “Sarmon daryosi” degan ma’noni ifodalashi haqida ma’lumot berilgan.

Bu ikki manbada qayd etilgan ma’lumotlar bir-birini to’ldiradi. Bu haqida tuman aholi vakillari ham o’z intervyularida shu kabi fikrlarni keltirishadi.

Biz o’rganayotgan Jarqo’rg’on tumanida hozirgi kunda 66 ta mahalla mavjuddir. Tumanning geografik xaritasiga e’tibor bersangiz ayrim joy nomlari(MFY)gina saqlanib qolgan. Ko’plab Jarqo’rg’on toponimlari yangi nomlar bilan almashtirilgan.



Ushbu tuman xaritasidagi joy nomlari xat-lov natijalari bo’yicha quyidagicha guruhlangan: shahar 1 ta – Jarqo’rg’on; shaharcha 5 ta – Kakaydi, Minor, Qoraqursoq, Markaziy Surxon, Kafrun; Qish-loq fuqarolar yig’inlari 66 ta; Mahalla fuqarolar yig’inlari ham 66 tani tashkil etadi. Shulardan MFYning 15 tasi shahar, qolgan 51 tasi qishloq hu-dudida, QFYlarning hammasi dahalar tipida joylashgan.

MFY tarkibidagi “Qoraqursoq”, “Loyqand”, “Qo’ldovli”, “Dam”, “Kamar”, “Qiron”, “Qoraburo”, “Soqchi”, “G’ur-g’ur”, “Qorayog’och”, “Boymoqli” kabi toponimlar dialektal ahamiyatga ega. Faqat shu joy nomlarigina o’zgarishsiz qolgan. Lekin ko’pgina joy nomlari o’zgartirilsa ham mahalliy aholi mahalla nomlarini o’zlari yashayotgan qishloq nomi *(aholi punkti)* bilan atashadi. Masalan, 98 yoshli To’lboyev Qo’shoq bobo tilidan yozib olingan ma’lumotga ko’ra, u kishi yashayotgan hozirgi “Guliston” mahallasi **To’pqora [Төpqɔrə -** jamlangan, yig’ilgan, gala, umumlashgan ma’nosidagi so’z**] dahasi** [**dəhəsъ** – Qo’ng’irot urug’i vakillari ma’muriy-hududiy jihatdan bo’linib yashagan makon] deb ataladi. Bu yerda ilgari “Do’ska” dahasining vakillari yashagan. Rivoyatlarga ko’ra bir kuni do’skalarning ustiga yog’iy bostirib keladi. Uzoqdan bir to’p otliqlar qora bo’lib yaqinlashib kelayotganini ko’rgan To’pqoraliklar yashayotgan hududidan o’ng tomonga qarab qochishadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Ularning aksariyat avlodlari hozirgi “Dehqonobod” mahallasida istiqomat qilib kelishmoqda. Bu ikki dahaning alohida masjidi va mozori bor. “Do’ska” so’zini “Polvonlar yurti” mahallasida yashovchi, tumandagi 33-maktabda chet tilidan dars bergan nafaqadagi o’qituvchi Ximmatov Rustam aka quyidagicha izohlaydi:

Qo’ng’irotlarning “Qonjig’ali” dahasi 14 otaga bo’lingan. Bu bo’linish nufuziga, mavqeyiga, boyligiga, mansabiga, obro’-e’tiboriga qarab bo’lingan. 6-o’rinda “Do’ska” turgan. Bobomizning (Rustam akaning bosh bobosi – *ta’kid bizniki M.X.*) asl ismi Do’sali, Do’san, Do’sa bobo bo’lgan. Eskidan bizgacha ma’lumki, momolari, yangalari laqab bilan mayda bo’lsa “Kenja” “Kenjali” deb atagan. Bizning bobomizni ham erkalab “Do’ska” deb chaqirgan.

Joy nomlarining tadqiqida geografik xususiyatlari bilan bir qatorda tarixiy faktlar ham, izlanishlar, qiyosiy-tahliliy ma’lumotlar ham muhim ahamiyatga ega. Joy nomlarini lingvistik jihatdan o’rganar ekanmiz, albatta, uning tarixiy tomoni bilan hamohanglikda tadqiq etishimiz yangi ilmiy yangiliklarni yaratishimizga asos bo’ladi. Dala amaliyoti tadqiqoti asosida o’rganilgan joy nomlaridan **Loyqand** [**lɔyqənd** – mahalla nomi] toponimini shu mahallada yashovchi *Nazarov G’ulom* (xurmo bog’ining bog’boni) ta’kidlashicha u istiqomat qilayotgan joydan “Loyqand” arig’i o’tgan, u hozir ham bor. Ushbu ariqning nafaqat suvi, hatto loyi ham juda shirin, qanddek totli bo’lgani sababli bu yerlik tub aholi shu nom bilan atagan. Keyinchalik bu mahalla hududi ikkiga bo’linib, ariqning **uyag’i** [**ɣyəg’ъ**-u tomoni, chap yoki o’ng tomoni] “Polvonlar yurti” MFY deb ataladi. Tarixchi professor Sayfullo Tursunovning ta’kidi tubdan farq qiladi. **Laykand**– Jarqo’rg’on tumanidagi qishloq (Oqqo’rg’on). Forscha-kand. Lar – qo’lda qazilgan yoki yog’in suvlari oqishidan hosil bo’lgan ariq, suv yo’li. Kand – Qanda – qazilgan, kovlangan. Larkand>laykand – yog’in suvlari oqib o’ygan joy, jar. Dastlab suvlik nomi bo’lgan. So’ngra suvlik nomi qishloq nomiga o’tgan, deb izohlaydi.

Bu ikki ma’lumotni tahlil qilar ekanmiz, suv bilan bog’liqligi mutanosiblik kasb etmoqda. Biroq mahalliy tub aholining ko’pchiligidan yig’ilgan matnlar sheva axborotchisi G’.Nazarov aytgan barcha fikrlar bilan hamohangdir. Bizning Jarqo’rg’on toponimlari tadqiqimiz davomida sheva axborotchilarimizdan to’plagan matnlarimizning aksariyati yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi.

Jarqo’rg’on tumanidagi aholi punktlarining nomlarini quyidagicha guruhlashni maqsadga muvofiq deb topdik:

- Katta-kichikligiga qarab: “Katta jinjak”, “Kichik jinjak”, “Loyqand – ikkiga bo’linib, bir qismi – kichiki “Polvonlar yurti” deyiladi”;
- Quyi-yuqoriligiga qarab: “Quyi qarishox”, “Yuqori qarishox”, “Yuqori Oqqo’rg’on”, “Quyi Oqqo’rg’on”, “Quyi Bobotog’”, “Yuqori Bobotog’”;
- Yangi-eskiligiga ko’ra: “Yangi Hayitobod”, “Eski Hayitobod”, “Yangi usul”, “Eski qo’rg’on”, “Yangi qishloq”;
- Rang+so’z=toponim: “Oqjar”, “Qorayog’och”, “Qorayantoq”, “Qizil navr”, “Qoraqosmoq”;
- “Qishloq” so’zi bilan bog’liq joy nomlari: “Xo’jaqishloq”, “Gurung qishloq”, “Baza qishloq”, “Qum qishloq”, “Arab qishloq”, “Xo’ja qishloq”;
- Boshqa urug’ vakillari istiqomat qilishiga ko’ra: “Turkman”, “Xatak”, “Istara”, “Xamkon”,;
- Qo’ng’irot urug’i nomlarining joy nomiga ko’chishiga ko’ra: “Ko’rto’g’ay”, “Qo’ldovli”, “Qoptug’ay”, “Boymoqli”,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Aholi punktlarining nomlari tarkibida turli xil qiziqarli xalq tomonidan og'izdan og'izga ko'chib kelayotgan voqeiy hikoyalarga asoslanganlari ham mavjud. Jumladan, "Garang" qishloqning nomi ham quyidagicha kelib chiqqan:

Bir boy o'tgan ekan. Uning juda ko'plab yilqisi bo'lgan ekan. U doim yilqilarini nazorat qilib turar ekan. Bir kuni yilqilarini sanoqdan o'tkazish uchun yaylovga boribdida, bitta chopqir otga minib bir boshdan sanay ketibdi. Qarasaki, bir kam 99 ta chiqibdi. Balki adashgandirman deb yana qayta-qayta sanabdi. Yana shuncha chiqibdi. Shunda jahli chiqib yilqiboqarni chaqirib nega otlardan bitta kam chiqayapti, deb so'roqqa tutibdi. Shunda yilqiboqar "Eee, garang bittasi ostingdaku", deb kulibdi. Shundan buyon bu qishloqning nomi "Garang qishloq" bo'lib atalar ekan.*(Dala amaliyotidan: sheva axborotchisi Ximmatov Rustam)*

Joy nomlarini atash bilan bog'liq holatlardan biri shuki, mehnat va ishlab chiqarish bilan bevosita aloqador holatlar ham mavjuddir. Tumandagi **"Kirpich"** qishlog'ida g'isht ishlab chiqaradigan zavod bo'lgan. Ushbu zavod g'isht chiqarishga ixtisoslashtirilgan bo'lib, ushbu hududda yashovchi tub aholi "Kirpich" deb ilgari sobiq rus tuzem davrida asosan ruscha so'zlar bilan so'zlashishimiz sababli tilimizda ko'plab rus tilidagi atamalar qo'llanilib qolgan.

Xalq tomonidan aytiladigan Makedon ko'prigi ***g'ish(t) ko'pir*** [***g'ʁsht kөpʁr****-g'ishtdan qurilgan ko'prik*] deyilishida ushbu nom va yuqoridagi joy nomining mantiqan bog'liqligi anglashiladi.

Google xaritada yoki bir qancha manbalarda ham Jarqo'rg'on joy nomlarining xalq tilida qo'llanuvchi variantlari aks ettirilgan. Hozirgi atalayotgan ko'plab nomlarni ularda uchratmaysiz. Yana bir qator "Kunchiqish", "Jinjaktepa", "Jayronxona", "Chorjo'y", "Changoyoq", "Qator tom", "Mopr", "Dam", "Kamar", "Qiron", "Yetim shox", "Obuz", "G'ur-g'ur" kabi qishloq aholi punktlarining nomlari mavjudki, ularning har biri o'ziga xos leksik xususiyatga egadir. Tuman Kengashi deputati, Nuroniylarning tumandagi oqsoqoli Asatov Sulton (eshon bobo) "G'ur-g'ur" mahalla nomini quyidagicha ta'riflaydi:

Yo'l-yo'lakay Jarqo'rg'onga borayverishda ko'zingiz beixtiyor yo'l belgilariga tushadi va unda bir nom sizni o'ziga jalb qiladi: **G'ur-g'ur** nomi mahalla nomidir. Mahallaga to'xtaladigan bo'lsak, buning nomlanishi ilmiy tilda **otviduk** [**ɔtvidγk** – suv inshooti] ma'nosi shuki bir jarlikdan yoki kanalning tagidan ikkinchi kanalni o'tkazib yuborish uslubiga **o'zbaki** [**өzbəki** – o'zbekcha, o'zbek tilida, joydori] tilda **"G'ur-g'ur"** deyiladi. Buni qurilish tilida "otviduk" deb nomlanadi. Zang kanalining boshini **Gidrouzil** suv boshqarmasi deydi. Bu kanal Angor va Muzrabot tumaniga suv beradi. **Amuzang kanali** kelib shunga quyiladi. Termiz tumanidagi **Gulbahordan** chiqadida **Ismoil Miroxur (Zang)** kanaliga quyiladi. Hatto **Bobotak** [**Bɔbɔtək** – Bobotog'ning atalishi] kanaliga ham suv beradi. Demak, Qumqo'rg'onning bir qismi, Jarqu(o')rg'on va Angorga to'lib suv beradi. Bu Jarqo'rg'on **po'sgai** [pəsgəi – davlat avtomobil nazorat posti]ning orqasidan o'tadi. Tumandagi tepaliklardan biri ham shu kishi nomi bilan "Ismoil tepa" deb ataladi.

Suv boshida (suv quyiladigan kanal boshi) **Progres** [**prɔgres** – eski joy nomi] degan savxoz bor. Eski **vaxta** [**vəxtə** – vaqtda. Ilgari, oldin ma'nolarida] shu nomdagi joy (oktabr o'ttiz yilligi) bo'lgan. O'shaning jarlikdan o'tkazib yuborgan. Sherobod markaziga borganda markazidan Zang kanal o'tadi. Yaxshilab e'tibor berilsa, **aspalt** [**aspəlt** – asfast. Yo'l qurilishid ishlatiladigan mahsulot]ning kun totish tomoni bor, bu tomoni o'ng tomoni yo'q. Bu tomonida Sherabod **dayra** [**dəyrə -** daryo] bor. Zang kanali **oquvi** [**ɔqγvi** – quyilib oqadigan qismi] Sherobod dayraning tagidan beton quyib katta odam sig'ib o'tib ketadigan **turba** [**tγrbə** – truba. Ichi g'ovak temirdan

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

tayyorlanadigan mahsulot] qilib o'tkazivorgan. Jarqo'rg'ondagi kanalga ham shunday qilib suv quyilivorgan. Ana shuni "G'ur-g'ur" deb o'z nutqini yakunlaydi.

Jarqo'rg'on shevasini tadqiq etish jarayonida bir narsaga guvoh bo'ldikki, eng ko'p tepaliklar aynan shu tumanda joylashgan ekan. Ko'plarini tekislab, o'zlashtirib yuborishgan. Ular haqida shu yerlik tarixchi olim tarix fanlari nomzodi, dotsent Abdug'ani To'xtayevdan qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Oqtepa – Surxon daryosining chap sohilida joylashgan. Mahalliy aholi tomonidan "Oq tuba", "Oq to'ba" deb ham ataluvchi bu tepalik Jarqo'rg'ondan 9 km janubda joylashgan. Tepalikning rangi oq rangda.

Arpapoyatepa – Surxon daryosining o'ng sohilida, "Shum" nomli qishloq yaqinida Jarqo'rg'ondan 10 kilometr shimol tomonda joylashgan kushonlar davridagi yodgorlik.

Nomsiztepa – Barottepa bilan yonma-yon joylashgan, ayni paytda o'zlashib ekinzorga aylanib ketgan.

Kattatepa – Surxon daryosining chap sohilida. Jarqo'rg'ondan 4 kilometr g'arbda, Kakaydidan (Ko'kaydi) 3 km janubda joylashgan. Tepalik devor bilan o'ralgan bo'lib, ayrim joylarida o'rkachlar yaxshi saqlanib qolgan.

Kultepa – Jarqo'rg'ondan 5 kilometr g'arbda joylashgan bo'lib, "Jarqo'rg'on minorasi" qishlog'ining yonida. Bu davrdagi spool parchalari qishloq yonidagi paxta dalalarda ham uchraydi. V.V.Bartold "Jarqo'rg'on minorasi" qishlog'i hududi atrofini o'rta asrlarda mavjud bo'lgan "Charmangan" markazi deb hisoblaydi.

Hayitobodtepa – Jarqo'rg'ondan 7 km shimolda joylashgan. Kushonlar davri yodgorligi, shahristonning yuza qatlami ilk o'rta asrlarga taalluqli, X-XI asrlarda ham qisman saqlangan. Afsonalarga ko'ra Hayitobodtepa qishlog'i atrofi devor bilan o'ralgan, tashqi tomondan suv to'ldirilgan handaqlar bilan o'ralgan mustahkam joy bo'lgan. Bundan tashqari devor ichkarisida 12 ta qo'rg'on bo'lib, xalq ularni ***"Oqqo'rg'onlar"*** deb atagan. Bu yerlar *"Hayitbek"* ismli kishiga qarashli bo'lgan. Hammani qo'rg'on atrofini o'rab turgan suvning qayerdan kelishi qiziqtirgan. Bu sirni faqat qishloq ahligina bilib, uni begonalarga aytish ta'qiqlangan, ammo Hayitbekning qizi *Hurliqo* otasining g'animi *Turonbek*ning o'g'li *Hiziral*iga ko'ngil qo'yadi va suv besh chaqirim naridagi *Oqjardan* yer ostidan o'tkazilgan sopol g'ovakdan ishlangan g'ovak g'o'lalar orqali oqib kelishini aytadi. Dushman qiz aytgan joyni topib, suv ta'minlovchi manbani buzib tashlaydi va Qo'rg'onni suvsiz qoldirib, uni egallashga muvaffaq bo'ladilar. O'z yurtiga xoinlik qilgan qizni esa to'p og'ziga bog'lab otadilar. Qizning tana parchalari sochilib ketgan joylardan chaqirtikanaklar o'sib chiqadi. Shu voqeadan so'ng bu yerlarni aholi tark etadi. Bu joylarda esa ulardan 12 ta qo'rg'ontepalar yodgorlik bo'lib qolgan.

Yalpoqtepa – Jarqo'rg'on shahrining janubidan 2 km uzoqlikda, Surxondaryoning o'ng qirg'og'ida, daryo o'zanidan 300 metr chamasi uzoqlikda, deyarli Ismoiltepaning qarama-qarshisida joylashgan. Bu hozirgi Jarqo'rg'on QFY *"Qo'ldovli"* mahallasi hududiga kiradigan katta yo'lning o'ng tomonidan *"G'oyibota"* qabristoni qarshisida joylashgan. Ayrim manbalarda shu qabriston nomi bilan ***"G'oyibotatepa"*** deb ham yuritiladi.

Karvontushtitepa – Maydoni 2 gektar bo'lib, qadimgi shaharni ayrim qismi buzilib ketgan. U Surxondaryoning o'ng qirg'og'ida, daryo o'zanidan 300 metr uzoqlikda, Surxon QFYga qarashli *"U.Xudoyberdiyev"* mahallasining *Kofrun* qishlog'ida joylashgan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Ismoiltepa – Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, bu qadimiy shahar Jarqo'rg'on shahrining janubi-sharqiy tomonida, Surxon ko'prigidan 300-400 metr olisda, chap qirg'oqda joylashgan bo'lib, maydoni 15 gektarni tashkil etadi.

Jarqo'rg'onda yashab, xalqning e'zozi va hurmatiga erishgan, o'z davrining juda mashhur mirobi, suv ilmini mukammal bilgan, sug'orish tarmoqlari, ariqlari va kanallarini qazish va suv o'tkazsih bo'yicha katta ishlarni amalga oshirgan Ismoil Miroxo'r nomini abadiylashtirish maqsadida Jarqo'rg'on xalqi ushbu arxeologik topilmaga Ismoil nomini bergan. Bu kabi holatlar juda ko'p. Chunki tuman aholisi Jarqo'rg'on uchun, uning qaysidir qishlog'i uchun ko'p mehnati singan bo'lsa, albatta, o'sha fidoyi insonning nomini abadiylashtirish uchun ko'plab o'zi yashagan yoki qayerda faoliyat olib borib o'sha joyni obod qilib, xalqi uchun samarali ishlarni bajargan bo'lsa shu kishining nomini o'sha joyga atab qo'yilgan. Jumladan Barottepaning nomlanishida ham shunday sabab bor.

Barottepa – Maydoni 9080 metr, balandligi 12 metrcha keladi. Qazilma ishlari olib borilgan paytda o'sha qishloq (eski nomi - Surxon. 1 baza)da yashovchi Barot ismli traktorchi tepalik artifidan topib olgan 17 ta har xil qimmatbaho tangalar va boshqa buyumlarni ekspeditsiya xodimlariga taqdim qilgan. Olimlar shu kishining sharafiga ushbu nomsiz tepani Barottepa deb atay boshlagan.

Qarishoxtepa – maydoni 0,2 ga ni tashkil etadigan, Jarqo'rg'on shahridan 6 kilometr uzoqlikda, janub tomonda, *"Namuna"* mahallasida, Surxondaryoning o'ng tomonida joylashgan. Doirasimon shakldagi tepalikning diametri 40 metr, balandligi 7,5 metrdir. Tepadan 500 metr atrofidagi dalalardan ko'plab sopol buyumlar topilgan, bu qadimda katta shahar bo'lganligidan dalolat beradi. Aynan shu yerdan sopoldan yasalgan xotinga tegishli tobut vazifasini bajaruvchi qurilma topilgan.

Bundan tashqari Zartepa, Oltintepa, Maslahattepa, Jinjaktepa, Qushtepa, Jartepa, Qo'shtepa kabi tepaliklar ham mavjuddir. Shulardan **Jinjaktepa** [**jʲnjək**-dukkakli, mayda tikanli, ko'p yillik sahro o'simligi]. Ushbu o'simlik ko'p o'sgan tepalik yoki qishloqqa shu nom berilgan. Tumandagi "Jinjak qishloq"ning ham nomlanishi ham shundan kelib chiqqan. Jin choh (kichik quduq) birikmasining o'zgargan variant ham bo'lishi mumkin: Jin-choh-jinchaq-jinchak-jinjak – mayda quduq yonidagi qishloq.

Xulosa o'rnida quyidagi fikrlarni qayd etish joizki, Jarqo'rg'on toponimikasi bo'yicha bir qancha ishlar bajarilgan. U ham bo'lsa tarixiy nuqtayi nazardan yondashilgan va shu bo'yicha o'rganilgan. Bugungacha tumanning joy nomlari to'liqligicha tadqiq qilinmagan. Ayniqsa, dialektal jihatdan izlanish olib borilmagan. Vaholanki, tuman Surxondaryo viloyatining hududi jihatidan katta bo'lgan tumnalar sirasiga kiradi. Lingvogeografik tadqiqotimiz natijasida toponimika bo'yicha "Jarqo'rg'on shevasi leksikasida joy nomlarining izohli lug'ati" yaratish, joy nomlari bilan bog'liq boshqa ilmiy ishlar uchun foydalanish, lug'atlardagi joy nomlarini boyitish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov S., To'xtayev A. Jarqo'rg'on (monografiya). – T.: "Fan", 2008-yil.
2. Tursunov S. Surxondaryo viloyati toponimlari. – T.: "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti", 2008-yil.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (3-tom). – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002-yil.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-12

4. O’zbek tilining izohli lug’ati (2-jild). – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020-yil.